



**Fatima ERGASHEVA,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
E-mail: faergasheva@gmail.com

TDPU professori, p.f.d. M.Mamarajabov taqrizi ostida

## PROBLEMS OF DEVELOPING STUDENTS' METACOMPETENCE IN DIGITAL EDUCATION

### Annotation

This article examines the problems of developing high-level competencies in students, called metacompetencies, in the context of digital education. The differences between the concept of metacompetence and other types of competence are revealed, and the need for and mechanisms for developing metacompetence are described using the example of future primary school teachers.

**Key words:** Metacompetence, hard competence, soft competence, professional competence, digital learning environment.

## ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕТАКОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

### Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы развития у студентов компетенций высокого уровня, называемых метакомпетенциями, в условиях цифрового образования. Раскрыты отличия понятия метакомпетентности от других видов компетентности, а также описаны необходимость и механизмы развития метакомпетентностей на примере будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** Метакомпетентность, жесткая компетентность, мягкая компетентность, профессиональная компетентность, цифровая среда обучения.

## RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING METAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lrim sharoitida talabalarning metakompetentlik deb ataluvchi yuqori darajadagi kompetensiyalarini rivojlantrish muammolari tadqiq etilgan. Unda metakompetentlik tushunchasining boshqa kompetensiya turlaridan farqli jihatlari ochib berilgan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini misolida metakompetensiyalarini rivojlantrish zarurati va mexanizmlari tavsiflangan.

**Kalit so'zlar:** Metakompetensiya, qattiq kompetensiya, yumshoq kompetensiya, kasbiy kompetentlik, raqamli ta'lrim muhiti.

**Kirish.** Hozirgi murakkab va noaniq muhitda yangi ijtimoiy va real dunyo muammolariga yechim topish uchun faqat fanlar doirasida olingan bilimlar etarli emas. Ilg'or fikrash qobiliyatlar va ijodkorlikni o'z ichiga olgan metakompetensiyalar ushbu sohaga xos kompetensiyalarini umumlashtiradi[1]. Shunga ko'ra, bunday murakkab jarayonlarni o'rganish va etarli darajada tavsiflash zarurati paydo bo'ladi. Har bir kasb egasining yuqori darajadagi (o'ta) kasbiy fazilatlari mavjud bo'lib, ularning rivojlanganligi natijasida kasbiy kompetensiyalar almashtirilishi yoki kengaytirilishi mumkin. Doimiy ravishda o'zgarib borayotgan va tobora ko'proq yangi shartlar va qoidalarni ilgari surayotgan hozirgi vaqtida bo'lajak mutaxassislarga, shu jumladan pedagog xodimlarga qo'yildigan talablar ham o'zgaradi: yangidan-yangi kompetensiyalar to'plamiga ega bo'lish talab etiladi. Natijada, quyidagi muhim savol tug'iladi: zarur moslashuvchanlikga qanday erishish mumkin? Bu savolga umumiy tarzda quyidagi javobni asosli ravishda berish mumkin: Metakompetensiyalarini rivojlantrish asosida.

Keyingi yillarda ko'plab fan sohalarida, xususan, pedagogika va psixologiya yo'nalişidagi tadqiqotlarda metakompetensiya tushunchasi ko'p qo'llanilmoqda [4]. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, metakompetensiyalar nafaqat ta'lim sohasida, balki barsha sohalarda zarur bo'lgan kompetensiyalarining yuqori darajasi hisoblanadi. Masalan, L. Zenk va boshqalar [4] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, metakompetensiya ega bo'lgan mutaxassis

yoki boshqaruvi xodimi u faoliyat yuritayotgan tashkilotning muvaffaqiyat qozonishida kasbiy kompetensiyaga ega xodimlarga nisbatan umumiy hisobda 20-30 % yuqori natijalar qayd etishgan.

Ushbu maqolada biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini misolida talabalarning meta professional kompetentligini rivojlantrish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari bayon etilgan. Xususan, ishda metakompetentlikning qattiq va yumshoq ko'nikmalar (hard and soft skills) dan qanday farq qilishi va ularning bo'lajak mutaxassislar uchun zarurligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan, shuningdek, metakompetentlikni rivojlantrish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Metakompetensiyaning o'zi amerikalik psixoterapevt Emi Mindell tomonidan taklif qilingan bo'lib [6], u bu kompetensiyalarini "ruhiy qobiliyatlar" sifatida tavsiflaydi. Qadimgi yunon tilidan tarjima qilingan "meta" prefiksi "yuqorida" yoki "qolipdan tashqari" degan ma'noni anglatadi. So'zning etimologiyasi shuni ko'rsatadi, bunday ko'nikmalar odama "tizimdan yuqori" bo'lishga imkon beradi. Standart kasbiy kompetensiyalar belgilangan chegaralar ichida harakat qilish, ta'lim tizimiga integratsiyalashish va uning doirasida amalga oshirilishiga yordam beradi. "Tizimdan yuqori" bo'lish - uning qanday ishlashini tushunish, jarayonlarga ta'sir qilish va tizim qoidalari o'zgartirishni anglatadi. Bunday tasavvur har doim ham to'liq oqilona emas: ko'p narsa sezgiga ham bog'liq.

“Meta-o‘qituvchi” o‘z holatini va o‘quvchilarining holatini yaxshi his qiladi va muayyan vaziyat qanday rivojlanishini oldindan ko‘ra oladi. Bunday bilimlar belgilangan qoidalarga emas, balki natijaga e’tibor qaratishga imkon beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) dasturida ta’lim sifatiga, jumladan, oliy ta’lim muassasalarini va ularning o‘quv dasturlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining innovatsiyalar bo‘yicha va XXI asr ko‘nikmalarini tashabbusi ta’limning kelajagi va yangi kompetensiyalarini rivojlanirish haqidagi so‘nggi munozaralarda markaziy mavzuga aylandi [7]. Bunda murakkab muhit sharoitida noaniq vaziyatlarni yengish uchun metakompetentlik talab qilinishi asoslangan.

E. Heery va uning hammulliflarining fikricha [8], metakompetensiyalar birinchi navbatda umumiyl ish muhit sharoitiga taalluqlidir, chunki ular odamlarga tashkilot ehtiyojlariga moslashish va vazifalarni bajarish va tashkiliy maqsadlarga erishish, shu jumladan o‘zgarishlarni kutish va yaratish uchun moslashuvchan yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. G. Cheetham va boshqalar [9] ta’kidlashicha, metakompetensiyalar inklyuziv xususiyatga ega, chunki ular barcha ish muhitlari uchun umumiy bo‘lib, ular boshqa kompetensiyalarini birlashtiradi va targ‘ib qiladi. Umuman olganda, metakompetentlikka boshqalar bilan muloqot qilish, turli xil ish vaziyatlari haqida tanqidiy fikrash, tajribalar haqida fikr yuritish va amaliyotlarni birlashtirish qobiliyatni kiradi [10]. Shuningdek, Harden va boshqalar [11], metakompetentlik akademik, hissiy, analitik, ijodiy va shaxsiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oлган kompetensiyalar uchun asos sifatida turli xil intellektlarni birlashtiradi. Braunning [12] e’tirof etishicha, metakompetensiyalar dastlab o‘rganish jarayonida shakllanadi va keyinchalik kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Reis va boshqalar [13], metakompetensiyalar ko‘pincha kasbiy kompetensiyalarining rivojlanirishiga olib kelishi, masalan, o‘z-o‘zini rivojlanirish kontekstida tahlil va mulohaza yuritish yoki mansab rivojlanishi kontekstida moslashuvchanlikni oshirishga olib keladi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda metakompetentlikning turli jihatlari turli yo‘llar bilan muhokama qilingan bo‘lsa-da, bir nechta intizomiy nuqtai nazarlarni izhil ko‘rib chiqadigan yanada keng qamrovli yondashuv hozirgacha mukammal asoslanmagan. So‘nggi yillardagi global o‘zgarishlar va tobora dolzarb bo‘lib borayotgan ijtimoiy muammolarni hisobga oлган holda, metakompetensiyani chuqr tushunish va yanada rivojlanirish zarurati har qachongidan ham muhimroq bo‘lib bormoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metakompetensiyalarning boshqa turdagи kompetensiyalaridan farqini aniqlashtirishda,

talabalarda metakompetentlikni rivojlanirish, matakompotentlikning raqamli ta’lim muhitidagi o‘rnini va ahamiyatini o‘rganish uchun ushbu tadqiqot ishida tahlil, taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalанинди.

**Tahlil va natijalar.** Metakompetensiyalarning boshqa turdagи kompetensiyalaridan farq qilishi, yuqorida xorijiy olimlar ishlarni tahlil qilish jarayonida qisman qayd etib o‘tildi. Ushbu farqni aniqlashtirish maqsadida har bir mutaxassis uchun zarur bo‘lgan quyidagi asosiy ko‘nikmalarini keltirib o‘tamiz:

Qattiq ko‘nikmalar (hard skills). Bu ko‘nikmalar biror sohadagi kasbiy ko‘nikmalardir. Bu turdagи ko‘nikmalarsiz hech bir kasb egasi rivojlanma olmaydi. Masalan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarni bilsishi, ushbu bilimlarni berishda hech bo‘lmaganda ba‘zi ta’lim texnologiyalarini qo‘llay olishi va ta’lim resurslaridan (hech bo‘lmaganda darslikdan) foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak;


Yumshоq ko‘nikmalar (Soft skills). Ushbu ko‘nikmalar bir sohaga yo‘naltirilmagan, lekin tamoyilga ko‘ra mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishga imkon beradi. Masalan, o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan do‘stona munosabat, o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion usullarda tashkil etish va nazorat qilish va h.k.;

Meta-ko‘nikmalar (Meta-skills). Bazaviy shaxsiy fazilatlar, ya’ni ular asosida boshqa ko‘nikmalar shakllanadi. Ilgari ular tug‘ma xarakterli xususiyatlar deb hisoblangan, lekin keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, bu ko‘nikmalar hayot davomida shakllanishi mumkin. Meta-ko‘nikmalar, masalan, ong va empatiyani o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan izohlardan anglash mumkinki, yumshоq va meta ko‘nikmalar bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Lekin, metako‘nikmalar yumshоq ko‘nikmala larga qaraganda keng ma’noli hisoblanadi va yumshоq ko‘nikmalar metako‘nikmalar asosida shakllanadi.

Garvard, Stenford tadqiqot markazi va Carnegie jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, ishdagi muvaffaqiyatning 85 foizi “yumshоq” ko‘nikmalar va atigi 15 foizi “qattiq” ko‘nikmalar orqali erishiladi. Ma'lum bo‘lishicha, yumshоq va metako‘nikmalar qattiq ko‘nikmalardan ko‘ra muhimroqdir.

Talabalarda metakompetentlikni shakllantirish jarayoni ancha murakkab. D.Fleming 1991 yildagi maqolasida [1] “Metakompetensiyalar - bu tushunishning kengroq chegaralarida ma’lum bir kompetensiyani ko‘rish imkonini beradi” deb ta’riflagan. U metakompetensiyalarini soha kompetensiyalarining yuqori chegarasi sifatida quyidagi sxemani taklif etadi (1-rasm).



1-rasm. D.Flemingning metakompetensiyalar pirmidasi.

Shunday qilib, metakompetensiyalarining boshqa turdagи kompetensiyalaridan asosiy farqlanuvchi jihatlari quyidagilar:

yangi, murakkab yoki unikal muammolarni hal qilishga qaratilgan;

o‘zgaruvchan sharoitlarda ijtimoiy-moslashuvchan sifatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Metakompetensiyalar talabalar moslashuvining fundamental masalalarini qamrab oladi, shuning uchun ularning rivojlanishi qisqa ta’lim dasturlarida ancha muammoli hisoblanadi. Bu faqat ikki yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin [14]:

rivojlangan metakompetensiyaga ega talabalarni tanlab olish;

doimiy talabalarni o'qitishga katta investitsiyalar jalgilish.

Metakompetensiyalar bir nechta sabablarga ko'ra bugungi mehnat bozorida juda muhimdir [15], xususan, bo'lajak mutaxassislar uchun quyidagilarni e'tirof etish mumkin.

1. Texnologiyaning jadal rivojlanishi. Zamonaviy texnologiyalar tez o'zgaradi va rivojlanadi, bu esa o'qituvchilardan yangi ko'nikmalarini tezda o'rganish, moslashish va qo'llash qobiliyatini talab qiladi. Tanqidiy fikrash va o'rganish qobiliyatları kabi metakompetensiyalar bu muammoni hal qilishga yordam beradi. Demak, talabalik davrida qo'lga kiritilgan metakompetentlik, ish faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishga zamin yaratadi.

2. Raqobat. Bugungi mehnat bozorida o'z o'mriga ega bo'lish uchun bo'lajak o'qituvchi nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki ijodiy fikrash va jamoada ishslash kabi zarur metakompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

3. Globallashuv. Global iqtisodiyot o'sib borayotgani va xalqaro aloqalar o'sishi bilan mutaxassislar turli

madaniyatlarda samarali muloqot qilishlari, murakkab xalqaro vaziyatlarda qarorlar qabul qilishlari va turli muhitlarga tezda moslashishlari kerak.

4. Ta'limning isloh qilinishi. Bozor talablari tez o'zgarib bormoqda. O'qituvchilar o'z sohasidagi o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari kerak. Metakompetensiyalar ularga yangi sharoitlarga moslashish va yangi bilimlarni tezda o'rganish imkonini beradi.

5. Zamonaviy muammolarning murakkabligi. Zamonaviy kasblar va vazifalar ko'pincha ijodiy yondashuvni, analistik fikrashni, turli jihatlar o'tasidagi bog'liqlikni ko'rish va murakkab qarorlar qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Metakompetentlik bunday vazifalarni samarali hal qilishga yordam beradi.

Ushbu keltirilgan sabablar asosida ish faoliyati va shaxsiy samaradorlik uchun muhim bo'lgan ba'zi universal va har doim talab qilinadigan metakompetensiyalarni quyidagi sxema shaklida ifodalash mumkin (1-rasm).



2-rasm. Metakompetensiyalarning asosiy turlari.

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning metakompetentligini rivojlantirish muammosi hozirgi kunda ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Metakompetentlikning yuqorida asoslab o'tilgan zarurati raqamli ta'lim jarayonida yanada dolzarblashadi. Masalan, Hemis integratsiyalashgan ta'lim platformasidan foydalanish jarayonida ham o'ziga xos muammolar yuzaga kelishi mumkin. Xususan, platformaning ta'lim resurslaridan foydalanish, nazoratlarni ushbu topshirish, kerakli ma'lumotnomalarni (baholar qayd varagi, shartnoma blankalari va h.k.) yuklab olish jarayonida metakompetentlik elementlari zarur bo'ladi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida ta'lim resurslarini izlash (internet va boshqa elektron manbalardan), ularni ajrata olish, saqlash, qayta ishslash, to'g'ri foydalana olish kabi muammolarni hal qilishda ham talabalarning metakompetentlik darajasi hal qiluvchi ro'yaydi.

**Xulosa va takliflar.** Maqolada professional kompetensiyalarning yuqori darajasi sifatida e'tirof etiluvchi

metakompetensiyalar va ularni talabalarda rivojlantirish masalalari o'rganildi. Bunda ushbu jarayon bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari misolida ko'rib chiqilib, metakompetensiya tushunchasining kasbiy kompetensiyadan farqlanishi, metakompetensiyalarning turlari va ularning har bir mutaxassis uchun zarur bo'lgan sabablarani aniq misollarda ochib berildi. Shuningdek, metakompetentlikning raqamli ta'lim sharoitida yanada dolzarb ahamiyatga ega ekanligi pedagogik nuqtai nazardan asoslab berildi. Maqolada keltirilgan tadqiqot natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, talabalarda metakompetentlikni rivojlantirish asosida bo'lajak mutaxassislarining ish sharoitiga oson moslashish, ish jarayonida yuzaga keladigan turli mummoli vaziyatlarda tez va optimal qarorlar qabul qilish, o'quvchilar va ularning otonalari bilan samarali muloqotlar o'rnata olish, raqobatbardoshlik kabi ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. O'z navbatida, bunday mutaxassislar, ta'lim muvassasalarining turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishishida asosiy kuch bo'la oladi.

#### ADABIYOTLAR

- Fleming D. (1991). The concept of meta-competence // Competence and Assessment. Vol. 16. P. 9–12.
- Delamare Le Deist F. & Winterton J. (2005) What Is Competence? // Human Resource Development International. Vol. 8:1. P. 27-46.
- Nelson T.D., Narens L. (1990). Metamemory: a theoretical framework and new findings. // The Psychology of Learning and Motivation. Vol. 26. P. 125-173.
- Zenk L. et al. Meta-competences in complex environments: An interdisciplinary perspective // Thinking Skills and Creativity 53 (2024) 101515.
- Campbell-Lee, D., Barton, S., & Armstrong, P. Higher-order CBT skills: Are there differences in meta-competence between trainee and experienced therapists? // Cognitive Behaviour Therapist, 17 (2024). <https://doi.org/10.1017/S1754470X24000047>
- Mindel E. Metaskills: The Spiritual Art of Therapy. Lao Tse Press, 2001. P.180.
- Brockmann, M., Clarke, L., Winch C. Competence and competency in the EQF and in European VET systems // Journal of European Industrial Training, 33 (8/9) (2009), P. 787-799, DOI: 10.1108/03090590910993634
- Heery, E., Noon, M. A dictionary of human resource management. Oxford University Press, 2nd ed., (2008).

9. Cheetham, G., Chivers, G. Towards a holistic model of professional competence // Journal of European Industrial Training, 20 (5) (1996), P.20-30, DOI: 10.1108/03090599610119692
10. Nurius, P.S. Social work preparation to compete in today's scientific marketplace // Research on Social Work Practice, 27 (2) (2017), P.169-174, DOI: 10.1177/1049731516658130
11. Harden, R.M., Crosby, J.R., Davis, M.H., Friedman, M. From competency to meta-competency: A model for the specification of learning outcomes. AMEE Guide No. 14: Outcome-based education: Part 5. // Medical Teacher, 21(6) (1999), P. 546-552, DOI:10.1080/01421599978951
12. Brown, R. Meta-competence: A recipe for reframing the competence debate // Personnel Review, 22(6) (1993), P. 25-36, Doi:10.1108/EUM00000000000814
13. Reis, D.A., Fleury, A.L., Carvalho, M.M. Consolidating core entrepreneurial competences: Toward a meta-competence framework // International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research, 27(1) (2021), P.179-204, DOI:10.1108/IJEBR-02-2020-0079
14. Razzak M.R., Al-Riyami S., Palalic R. (2022) Organizational Meta Capabilities in the Digital Transformation Era. Foresight and STI Governance, 16(4), 24–31. DOI: 10.17323/2500-2597.2022.4.24.31
15. Ergasheva F.T. Problems of development of research competence of students of technical universities in teaching mathematics. // International Journal for Innovative Engineering and Management Research. - 2021. Vol. 10, Issue 06, pp. 103-111. DOI: 10.48047/IJIEMR/V10/I06/21.
16. Ergasheva F.T. Raqamlı ta'lım muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari // O'zMU xabarlari, 2023, [1/7/1]. 155–157 b.
17. Ergasheva F.T. General issues of forming the digital competence of university students // European Journal of Humanities and Educational Advancements (Open Access Journal). Vol. 4 No.7, 2023.